

## BROKKLI KARAMINING SELEKSION XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Odashev Muhammadusmon Ulug'bek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada brokkli karamining foydali xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqoladan foydalanib brokkli karamidan yuqori va sifatli maxsulot yetishtirish to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Brokkli, gulkaram, vitamin, oqsil, mikroelement, agrotexnika

**Abstract:** This article provides information on the beneficial properties of broccoli cabbage and its cultivation technology. Use the article to learn how to grow high quality broccoli.

**Key words:** Broccoli, cauliflower, vitamins, protein, trace elements, agrotechnics

Brokkli (*Brassica botrytis* subsp.italica) – karamdoshlar oilasiga mansub, bir yillik o'simlik, gulkaramning o'zgargan turi hisoblanadi. Janubiy Italiya brokkli vatani bo'lib, qadimgi Rimda 2 ming yil oldin ham yetishtirilgan. Bu ekin Italiyadan Vizantiyaga, keyinchalik esa boshqa Yevropa davlatlariga keng tarqalgan. AQSh da karamning bu turi 1925 yildan beri ekib kelinadi va bugungi kunda maydoni gulkaramnikidan ham ko'payib ketgan. Hozirgi vaqtda brokkli yetishtirish Yaponiya, Italiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada, Shvetsiya, Polsha, Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda sezilarli darajada ko'paygan. Mamlakatimizda brokkli noan'anaviy, kam tarqalgan sabzavot ekinlariga kiradi. Uni ayrim havaskor sabzavotkorlar cheklangan miqdorda yetishtirmoqdalar.

Brokkli karami boshqa karamlarga nisbatan tez hazm bo'lishi bilan ajralib turadi. U yengil o'zlashtiriladigan oqsilga boy (3,2-4,5%) bo'lib, miqdoriga ko'ra kartoshka,shirin jo'xori hamda ismaloqdan ustun turadi. Undagi oqsil tarkibida antiskleritik modda va metioninni bo'lishi organizmda xolesterin ko'payib ketishiga to'sqinlik qiladi. Oqsili tarkibidagi noyob aminokislotalar mol go'shtidagi lizin, triptofan miqdori esa tuxumdagi oqsil tarkibidan kuchlidir.

Brokli tarkibida vitaminlar, pektin va yumshoq kletchatkani, xolin hamda metionin moddalarini, shuningdek, mineral tuzlar va boshqa biologik faol moddalari mutanosibligi turli yoshdagi insonlar uchun juda muhim parhez bop maxsulot ekanligidan dalolat beradi. Uning maxsulotidan nurlanish kasalliklarini davolashda samarali foydalanish mumkin.

***Brokkli karamini yetishtirish texnologiyasi.***

➤ *Yer tanlash*

Brokkli karami yaxshi o'g'itlangan hamda yaxshi ishlangan yerlarda yuqori hosil beradi. Brokkli uchun sabzavot almashlab ekishda eng yaxshi o'tmishdosh ekinlar, kartoshka, bodring, poliz ekinlari hamda dukkakli ekinlar hisoblanadi. Karamlarni o'zining o'rniga qayta ekish tavsiya etilmaydi. Uni o'z o'rniga kamida 2-3 yildan keyin ekish mumkin. Ertaki brokkli bedaning o'rnida yaxshi o'smaydi. Chunki u ekiladigan paytda bedaning ildizlari yaxshi chirib ulgurmaydi.

➤ *Yerni ekishga tayyorlash*

Ekishdan oldin yerga ishlov berish ekish muddatiga bog'liq. Erta bahorgi muddatda ekish paytida dala erta bahorda boronalanadi, hamda ekishdan oldin egatlar olinadi. Ertaki hosil yetishtirish maqsadida bu ishlar kuzda bajariladi, bahorda dalaga chiqish uchun imkoniyat paydo bo'lishi bilan ko'chatlar o'tqaziladi. Yozgi muddatda brokkli karamini ekish paytida ham ekish oldidan xuddi shunday ishlov beriladi. Brokkli karami urug'idan ekilganda kuzgi shudgor, erta bahorda namni saqlash uchun baronalash o'tkaziladi. Ekishga ozroq qolganda yer chizel yordamida yumshatiladi yoki ag'darilmasdan haydaladi.

➤ *Ekish muddati, qalinligi va sxemasi*

Brokkli karami 4 muddatda ekiladi: ertaki – fevral oxiri, mart oyi boshlarida, o'rtapishar – mart oyining oxirgi o'n kunligida, kechki – 15 iyundan 15 iyulgacha, qish oldidan – noyabr oyi boshlarida ekiladi. Qator oralari 70 sm, tup oralari naviga qarab – 25, 30, 40 va 50 sm qilinib, har gektariga 45-57, 36-37 va 28-30 ming tagacha ko'chat ekiladi. Brokkli karamining ko'chatlari ham ertapishar oddiy karamlarga o'xshab yetishtiriladi, lekin u birmuncha yuqori, kunduzgi +18-22 °C va tungi +10-14 °C haroratli sharoitda o'stiriladi. Ko'chatlar issiqxonalarda 50-60 kunda yetiladi.

➤ *O'g'itlash*

Brokkli karamiga unumdor yerlar ajratilishi va ularga o'g'it solinishi kerak. Organik moddalar bilan yaxshi ta'minlangan issiqxona yaqinidagi yerlarga brokkli ekish ayniqsa, qulaydir. Brokklining yetuk o'simliklari bir oz soya joyda ham o'saveradi. Shuning uchun uni bog' qator oralariga ham ekish mumkin. Brokkli karami o'g'itga, ayniqsa organik o'g'itlarga talabchan bo'ladi. Shuning uchun uni o'stirishda ko'p miqdorda go'ng solish (gektariga 50-60 t) tavsiya etiladi. Mineral o'g'itlar esa gektariga 200 kg azot, 150 kg fosfor va 75 kg kaliy solinadi.

➤ *Parvarishlash*

Brokklini parvarish qilish sug'orish, qator oralarini kultivatsiya va chopiq qilishdan iborat. Ko'chatlar ekib bo'lingach, ketma – ket sug'orish ularning to'liq tutib olishini ta'minlaydi. Ko'chatlar to'liq tutib olganidan 16-18 kun o'tgach,

o'simliklarga to'liq ishlov beriladi, ya'ni o'simlik qator oralari KRN-2,8A rusumli agregat yordamida 15-16 sm chuqurlikda yumshatiladi.

Urug'idan ekilgan brokkli karamlarida yaganalash ishlari ikki bosqichda: birinchisi o'simlik chinbarg chiqarganida va birinchi chopiq vaqtida o'tkaziladi. Nihollar yalpi unib chiqishi bilan qator oralarini yumshatishga kirishiladi. Ertaki muddatda ekilgan karam maydonlaridagi begona o'tlar hamda kasallik yoki zararkunandalarni yo'qotish bo'yicha kurash choralarini amalga oshirib, tuproq turi hamda yer osti suvlari chuqurligiga muvofiq 8-10 kun oralatib 550-600 m<sup>3</sup>/ga me'yorda sug'oriladi.

Brokkli birinchi yildayoq urug' beradi. Biroq, bizda uning urug'ini yetishtirish qiyin, chunki bu yerlarning yuqori haroratiga brokkli unchalik yaxshi chiday olmaydi. Shu sababli brokkli kuzning salqin davrlarida o'stiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayupov R.X. Siz sevgan meva, sabzavot va ko'katlar. Toshkent. 2008
2. Ostonaqulov T.E. Meva, sabzavot va poliz maxsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent. 2006
3. Brokoli ve bruksel lahanasi yatistiriciligi. Ankara. 2011
4. Agrobank tomonidan tayyorlangan "100 kitob" to'plami